



International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies

International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies - is an international conference platform under open access policy. The conference is led by international expert members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed, edited by authors and evaluated on its own scholarly merits and research integration. Publishing and joining on the proceeding of the International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies will ensure publishing experience and indexing possibilities on various global indexing.

Kartoshka Navlarini O'Simta Ko'Chatlaridan Yetishtirish

Sh. B. Shamsiyeva

Assistent-SDVMCHBU

S. T. Sanayev

Professor-SATI

Annotatsiya

Kartoshka navlarini takroriy ekinda o'simta ko'chatlaridan o'stirilganda o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kartoshkachilik, tuganak, nav, o'simta ko'chat, mahalliy nav, mineral o'g'it, mahalliy o'g'it, hosildorlik, hosil sifati.

Kirish: Dunyoda kartoshka asosiy va ommabop strategik oziq-ovqat ekinlaridan biri hisoblanadi. Dunyo bo'yicha mazkur ekin ekiladigan maydonning har gekardan olinadigan o'rtacha hosildorlik 16-17 tonnani tashkil etmoqda.

Respublikamizda kartoshkachilik sohasidagi asosiy muammolaridan biri mahalliy, noqulay sharoitlarga chidamli navlar urug'lik materiallarining yetishmasligi hisoblanadi.

Respublikamizda Samarqand viloyati kartoshkachilik rivojlangan viloyatlaridan biri hisoblanadi va mamlakatimizda yetishtiriladigan kartoshkaning 22-24%i ishlab chiqariladi.

Bugungi kunda kartoshkachilik bilan shug'ullanuvchi dehqon, fermer va tomorqa yer egalari asosan kartoshka yetishtirishga ketadigan harajatlarning 55-60 % ini urug'lik uchun sarflaydilar. Bu esa yetishtiriladigan kartoshka tannarxini keskin oshib ketishiga olib keladi. Shu sababli biz Samarqand viloyati sharoitida kartoshkaning katta maydonlarda ekiladigan Sante, Aladin, Arizona, Pikasso, Marfona, Evolyushn, Memfis, Manitu, Fontane va Arnova navlari yozgi muddatda takroriy ekinda o'simtalaridan o'stirib uning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini baholadik. Bunda kartoshka navlarining urug'lik uchun mo'ljallangan tuganaklari yuvilgan qora qum ostida o'stirilib navlarning urug'lik tuganaklaridan o'rtacha 5-8 donagacha o'simta ko'chatlar yetishtirildi.

T.E.Ostonaqulov., S.T.Sanayevlarning olib borgan tajribalarida keltirilishicha kartoshkaning 30 dan ortiq navlarini ertagi ekinda o'simta ko'chatlaridan o'stirilganda 50-80 grammlik urug'lik tuganaklardan o'simta chiqimi o'rtacha 4-5 donani tashkil etgan. (Astanakulov, Jumaev, & Sanaev, 2015). Tayyor o'simta ko'chatlar tayyorlangan dalaga kunning salqin vaqtida sabzavot

ko'chatlari singari har bir uyaga ikki donada ekildi. Bunda qator oralari 70 sm, qatordagi o'simlik oralig'i 20 sm ni tashkil etdi. S.Sanaev, X.Xonqulov, I.Amanturdiyevlarning ta'qidlashicha ertangi muddatda kartoshka navlarini o'simta ko'chatlaridan o'stirilganda qator orasini 70 sm qatordagi o'simliklar orasini 20 sm qilib har uyaga 2 dona ko'chat joylashtirish yuqori hosil olishni ta'minlagan. (Sanaev, Kh, & Kh, 2021). Bizga ma'lumki kartoshkachilikda tuganak hosilining ortishi mineral o'g'itlarga bog'liqdir. Mineral o'g'itlar kartoshka o'simligi oziqlanishini yaxshilab uning o'sishi va rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratib beradi. Shuning uchun ham mineral o'g'itlarni qo'llash va me'yorining ma'lum darajada ortib borishi bilan o'simlik bo'yi, barg, yon poyalar soni ortib bordi.

S.Sanayev., A.Hamzayevlar tomonidan olib borilgan ilmiy tajribalarda kartoshka navlari o'simta ko'chatlaridan o'stirilganda turli o'g'itlar bilan oziqlantirilib o'stirilganda eng yaxshi ko'rsatkichlar mahalliy va mineral oziqalarni birgalikda qo'llanganda ko'zatilgan. (Sanaev & Xamzaev, 2016).

Poya soni kam darajada mineral o'g'itlar qo'llanishi va me'yoriga bog'liq bo'ldi. Mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish o'suv davrini ham biroz ortishiga olib keldi. (Ostonakulov & Sanaev, 2017).

Tajribamizda o'rganilgan kartoshkaning 20 dan ortiq navlari orasidan ajratilgan Sante, Aladin, Arizona, Pikasso, Marfona, Evolyushn, Memfis, Manitu, Fontane va Arnova navlarining uzunligi 12-14 smli o'simta ko'chatlari 70x20x2 sm sxemada ekilib, turli o'g'it me'yorlarini ta'siri o'rganildi. Kartoshkaning tanlangan navlarining o'simtalaridan yetishtirilganda o'g'itlash me'yorlari variantlar bo'yicha $N_{100}P_{80}K_{50}$, $N_{200}P_{160}K_{100}$, 20t/ga yarim chirigan go'ng, 20t/ga yarim chirigan go'ng+ $N_{200}P_{160}K_{100}$ kg/ga ni tashkil etdi. T.E.Ostonaqulov va S.T.Sanaevlar tadqiqotlarida ham ushbu qonuniyat kuzatilgan. (Astanakulov & Sanaev, 2017).

Tanlangan kartoshka navlarining urug'lik tuganaklar va o'simtaları 4 ta takrorda ekilib, har bir takrorda navlar bo'yicha delyanka maydoni 28 m² ni tashkil etdi.

Tanlab olingan kartoshka navlarining urug'lik tuganaklaridan olingan o'simta ko'chatlari 70x20 sm sxemalarda har uyaga ikki donadan ekilib turli o'g'itlar me'yorlari qo'llanilgan sharoitda kartoshka o'stirilib fenologik kuzatish olib borildi.

Olib borilgan fenologik kuzatish natijalari vaqtida istiqbolli kartoshka navlarining urug'lik tuganaklaridan o'simta ko'chatlar chiqimi, dalada ko'chatlarning tutuvchanligi, asosiy poyalarda yon poyalarning shakllanishi, shonalash, gullash va palak sarg'ayish fazalarini boshlanishi va to'la ro'y berish muddatlari kuzatildi.

Tanlangan kartoshka navlari turli o'g'it me'yorlarida o'stirilganda navlar bo'yicha o'simliklarning o'sishi, rivojlanish va vegetativ organlarining shakllanish dinamikasi o'suv davrini 30-70-kunlari oralig'ida, ya'ni har o'n kunda biometrik o'lchash orqali aniqlandi.

Kartoshka navlari urug'lik tuganaklari to'liq unib chiqqandan va o'simtaları to'liq tutgandan so'ng dastlabki rivojlanish (unib chiqqanning 10-30-kunlari) davrida o'simliklar bo'yini o'sishida sezilarli farq kuzatilmadi. O'suv davrining 30 kundan 60 kungacha o'simliklar bo'yining o'sishi va rivojlanishi jadal bo'lib, o'suv davrining 60-70-kunlarida o'sish jadalligi ancha susayganligi kuzatildi.

Turli o'g'it me'yorlarida o'stirilgan kartoshka Arizona, Pikasso, Evolyushn, Arnova navlarining o'sishi, rivojlanishi va vegetativ organlarini shakllanishi kuzatilib, kartoshka navlarining o'suv davrini 30-kuni navlar bo'yicha o'simlik bo'yi 26,7-45,5 sm ni tashkil etib, o'suv davrining 40-60-kunlari o'simlik bo'yining o'sishi qonuniyat asosida ortib borib, o'suv davrining keyingi 70-kuni navlar bo'yicha o'simlik bo'yi 68,2-99,9 sm ekanligi qayd etildi. S.Sanaev tajribalarida qayd etilishicha kartoshka navlari o'simliklarining bo'yi 55,5 – 100,8 sm dan iborat bo'lgan. (Sanayev, 2014).

Eng yuqori baland bo'yli o'simliklar gektariga 20t/ga yarim chirigan go'ng+ $N_{200}P_{160}K_{100}$ kg me'yorlarda o'g'itlar qo'llanilib, kartoshka navlarining o'simta ko'chatlari 70x20 sm sxemada har

uyaga 2-3 donadan ekib o'stirilganda qayd etilib, kartoshka navlarining o'suv davrining (o'simta ko'chatlar ekilgandan) 30-kuni navlar bo'yicha o'simlik bo'yi 38,4-45,5 sm ni tashkil etib, o'suv davrining 40-60-kunlari qonuniyat asosida ortib borib, o'suv davrining keyingi 70-kuni o'simlik bo'yi navlar bo'yicha 87,2-99,9 sm ekanligi olingan ma'lumotlar asosida aniqlandi.

Turli o'g'it me'yorlarida o'stirilgan kartoshka tezpishar va o'rtatezpishar navlarining o'suv davrini 30-kuni navlar bo'yicha bir tupda yon poyalar soni 1-4 donani tashkil etib, o'suv davrining 40-60-kunlari qonuniyat asosida ortib bordi va o'suv davrining keyingi 70-kuni navlar bo'yicha bir tup o'simlikda yon poyalar soni 7-14 dona ekanligi qayd etildi.

Ajratilgan kartoshka tezpishar Arizona, Marfona Arnova navlari turli o'g'it me'yorlarida o'stirilganda navlar bo'yicha hosildorlik, tovar va urug'bop hosil chiqimiga o'stirish sharoitlarining ta'siri o'rganildi. Kartoshka turli navlari ergagi ekinda o'stirilganda o'g'it me'yorlarining hosildorlik va hosil sifatiga ta'siri A.Hamzayev., T.E.Ostonaqulov va S.T.Sanayevlar tomonidan ham o'rganilgan (Hamzaev, Astanakulov, & Sanaev, 2015).

Ajratilgan kartoshka navlari o'simtalaridan turli o'g'it me'yorlarida o'stirilganda navlar bo'yicha 70x20 sm sxemada har uyaga 2-3 dona o'simta ko'chatlar ekilganda hosildorlik 19,5-27,6 tonnani tashkil etdi. Eng yuqori hosildorlik gektariga 20t/ga yarim chirigan go'ng+N₂₀₀P₁₆₀K₁₀₀ kg me'yorlarda o'g'it qo'llanilib o'stirilganda olindi va navlar bo'yicha hosildorlik gektaridan 25,2-27,6 tonnani tashkil etdi. (Ostonakulov, Sanayev, & Xonkulov, 2014).

Ajratilgan kartoshka tezpishar, o'rtatezpishar va o'rtapishar navlari turli o'g'it me'yorlarida yetishtirilganda navlar bo'yicha umumiy hosil alohida-alohida yig'ishtirib olingach, umumiy hosildan mahsulot sifati yuqori bo'lgan sog'lom va sifatli, tovar va urug'lik material talablariga to'liq javob beradigan tovar va urug'bop kartoshka tuganaklari ajratib olindi.

Demak, kartoshka ekini hosildorligi, tovar va urug'bop hosil chiqimi o'g'it me'yorlari, ekish sxemalari, ekin navi hamda o'stirish sharoitlariga bog'liq ekan. Shuning uchun har bir tuproq iqlim sharoitiga mos navlarni tanlash va ularni maqbul ekish sxemalarida va o'g'itlash me'yorlarida o'stirish kartoshka navlarini o'simta ko'chatlaridan yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Sanaev ST, Shamsiyeva Sh B - Growing Varieties of Vegetable (Sweet) Corn Suitable for Processing International Journal of Progressive Sciences and Technologies 2020.
2. Shamsiyeva Sh B, Aliqulova Z - Kartoshka yetishtirishning resurstejamkor texnologiyasi. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali, 2023.
3. Рахматов И И, Шамсиева Ш Б - Влияние срока и схемы посадки на рост, развитие и урожайность сахарной кукурузы. Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali, 2023. 13-18 bet
4. Sanaev, S. T., & Shamsiyeva, S. B. (2020). Growing Varieties of Vegetable (Sweet) Corn Suitable for Processing. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT).
5. Ишниязова Ш А, Тилавов Х М, Турсунов А, Шамсиева Ш Б, Жамолиддинова В, Сатторов М М - Экологическая оценка объектов биосферы. Материалы LIV международной научно-технической конференции «Достижения науки–агропромышленному производству»/под ред. докт. техн. наук ПГ Свечникова.– Челябинск: ЧГАА, 2015.–Ч. II.–327 с.
6. Tursunmurodovich, R. U., Gulmurod o'g, P. R. Z., Ramatullayevich, S. F., Rustam o'g'li, B. A., & Gulmurod o'g'li, P. E. (2023). RESPUBLIKAMIZDA CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIKDAN OLINGAN MAHSULOTLAR. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 1-6.

7. Tursunmurodovich, R. U., Baxtiyor o'g'li, S. A., Nodirjonovich, X. K., Umarbek o'g, B. N. M., Komilovich, K. S., Quvondiq o'g'li, E. Z., ... & Gulmurod o'g'li, P. E. (2023). TAJRIBA GURUHIDAGI GOLSHTIN SIGIRLARNING I-LAKTATSIYADA OZUQANI SUT BILAN QOPLASH DARAJASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 176-182.
8. Musurmonov, Q., Pardayev, R., Ismatova, M., & Xamanova, S. (2023). Productivity of Cows in the Experimental Group with Black-and-White and Its Crossbreeds with Holstein Bulls. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 1(5), 532-535.
9. Пардаев, Р., & Рахимов, У. (2023). Tajriba guruhlaridagi sigirlarning klinik ko'rsatkichlari. Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов, 1(1), 300-303.
10. Рахимов, У., Пардаева, Р., & Пардаев, Э. (2023). Level of feed consumption by milk productivity in experimental cows in the second lactation. Актуальные проблемы пустынного животноводства, экологии и создания пастбищных агрофитоценозов, 1(1), 293-295.
11. Safarov, U. T., Saidmuradova, Z. T., & Nurmukhamedov, A. M. (2023, July). Adhesion strength of the dough for Uzbek flat cakes "Obi-non" in multiple sequential stamping of bills. In *AIP Conference Proceedings (Vol. 2999, No. 1)*. AIP Publishing.
12. Navbahor, R. (2023). SUT MAHSULOTLARI KISLOTALIGI HAMDA SUT KISLOTASINING NORDON VA ACHITILGAN SUT MAHSULOTLARI SIFATIGA TA'SIRI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 55-63.
13. Amina, Q. (2023). OILAVIY KORXONALAR VA UY-RO'ZG'OR SHAROITIDA BALIQ KONSERVALARI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 155-161.
14. Javlon, J., & Ulmas, S. (2023). SUTNING MIKROSTRUKTURAVIY XOSSALARI O'ZGARISHLARINING MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASHNI OPTIMALLASHTIRISHDA AHAMIYATI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 101-106.
15. КУРБАНОВ, Ж. М., ОЛИМОВ, А. О., САФАРОВ, У. Т., & ОСТАПЕНКОВ, А. М. (1984). Установка для производства хлеба.
16. Sanaev, S. T., & Shamsieva, S. B. (2020). Growing Varieties of Vegetable (Sweet) Corn Suitable for Processing. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*.
17. Shamsiyeva, S. B., & Aliqulova, Z. (2023). KARTOSHKA YETISHTIRISHNING RESURSTEJAMKOR TEXNOLOGIYASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 19-25.
18. Рахматов, И. И., & Шамсиева, Ш. Б. (2023). ВЛИЯНИЕ СРОКА И СХЕМЫ ПОСАДКИ НА РОСТ, РАЗВИТИЕ И УРОЖАЙНОСТЬ САХАРНОЙ КУКУРУЗЫ. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 13-18.
19. Ишниязова, Ш. А., Тилавов, Х. М., Турсунов, А., Шамсинва, Ш., Жамолиддинова, В., & Сатторов, М. М. (2015). Экологическая оценка объектов биосферы. In *ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ-АГРОПРОМЫШЛЕННОМУ ПРОИЗВОДСТВУ* (pp. 228-233).

20. Sanaev, S. T., & Shamsieva, S. B. (2020). Growing Varieties of Vegetable (Sweet) Corn Suitable for Processing. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 22(2), 67-70.
21. Muminov, N., Yusupov, A., Tuyg'unov, A., & Tulayev, A. (2022). TARKIBI BOYITILGAN GO 'SHTLI CHUCHVARA YARIM TAYYOR MAHSULOTNING AMINAKISLOTALI TARKIBI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 816-818.
22. Tulayev, A. A., & Musurmonov, A. T. (2024). OZUQABOP EKINLAR POYALARINI MAYDALASH MASHINASI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 21), 419-421.
23. Xoldorov, A., & To'layev, A. A. (2023). OZIQAVIY QIYMATI YUQORI BO 'LGAN SUT MAHSULOTLARI OLIHNING ZAMONAVIY USULLARI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 64-69.
24. Murtazayev, O., & To'layev, A. A. (2023). DARAXT VA BO 'TAZOR O 'SIMLIKLARINING BARGXAZONLARI, ULARNING FIZIK-MEXANIK VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 162-168.
25. Xudayberdiyev, E. N., Samandarov, L. K., & Nasriddinov, K. R. (2020). Improving the effectiveness of teaching nuclear physics using the principle of historicity. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(91), 383-390.
26. Бойбулов, Б. Ш., Пардаев, Р. Г., & Мусурмонов, Қ. Э. (2022). ҚОРАМОЛЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТЎЙИМЛИ ОЗИҚЛАНТИРИШ, АСРАШ ВА СУНЎЙ ҚОЧИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 528-530.
27. Бойбулов, Б. Ш., Пардаев, Р. Г., & Мусурмонов, Қ. Э. (2024). ҚОРАМОЛЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТЎЙИМЛИ ОЗИҚЛАНТИРИШ, АСРАШ ВА СУНЎЙ ҚОЧИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *ILM FAN XABARNOMASI*, 1(2), 355-359.
28. Kazakova, S. O., & Bahodirov, S. D. (2023). Mamlakatimizda go'sht kanservalari ishlab chiqarishning hozirgi holati va rivojlanishi. *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 136-141.
29. Kazakova, S. O., Bahodirov, S. D., Temirov, O. H., & Murotqobilova, M. S. (2024). HAYVON YOG 'LARINI QAYTA ISHLASH TEXNALOGIYASI. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 5(2), 1409-1412.
30. O'sarov, M. J., Kazakova, S. O., Bahodirov, S. D., & Tulkinova, U. S. (2024). PISHLOQ ISHLAB CHIQRISHDA SUT SIFATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 5(2), 1405-1408.
31. Turobov, S. K. O. T. A. (2023). VARIETIES OF BEEF AND CULINARY CHARACTERISTICS. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(12).
32. Kazakova, S. O. (2023). TURLI KONSTITUTSIYA TIPIGA EGA SIMMENTAL SIGIRLARNING ASOSIY SELEKSIYA BELGILARI O 'RTASIDA KORRELYATSIYA KOEFFITSIENTLARI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 114-122.
33. Muminov, N., Yusupov, A., Tuyg'unov, A., & Tulayev, A. (2022). TARKIBI BOYITILGAN GO 'SHTLI CHUCHVARA YARIM TAYYOR MAHSULOTNING AMINAKISLOTALI TARKIBI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 816-818.

34. Muminov, N., Yusupov, A., Tuyg'unov, A., & Tulayev, A. (2022). TARKIBI BOYITILGAN GO 'SHTLI CHUCHVARA YARIM TAYYOR MAHSULOTNING AMINAKISLOTALI TARKIBI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 816-818.
35. Yusupov, A. H., & Tuyg'unov, A. B. (2022). DO 'LANANING SHIFOBAXSHLIGI VA UNI QURITISH TEXNOLOGIYASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1(2), 1-6.
36. Akhtamova, M. T., Kurbanova, S. E., Sadikova, C. S., & Gapparov, S. T. Correlation Between Some Economic Traits of Holstein Breed Cows. INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE/.
37. Botir o'g'li, X. X., & Ergashevna, Q. S. (2023). TAJRIBADAGI HAYVONLARNING CHIZIQLI O 'LCHAMLARI VA TANA INDEKSLARI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 247-254.
38. Botir o'g'li, X. X., & Ergashevna, Q. S. (2023). TAJRIBA GURUHLARIDAGI HAYVONLARNING O 'SISH VA RIVOJLANISH KO 'RSATKICHLARI. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 84-89.
39. Эгамбердиева, З. К., Нарбаева, М. К., Эргашевна, Қ. Ш., & Гаппаров, Ш. Т. (2023). Голштин Зотлисигирларнинг Экстерьер Кўрсаткичлари. Miasto Przyszłości, 42, 179-182.
40. Ulmasovna, I. D., & Ergashevna, Q. S. (2023). TAJRIBA GURUHIDAGI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGI. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, 100-105.